

BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISH METODIKASI

Egamberdiyeva Robiya Yuldashbaevna

Andijon shahar 18-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.*

Kalit so'zlar: *pedagog, mahorat, fan, predmet, maqsad, vazifalar, ma'lumot, bilim, ko'nikma, malaka, amaliyot, fikr, tarix, o'qituvchi, qobiliyat, madaniyat.*

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina - Ta'lim to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat haqida umumiy ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallab olishga imkon yaratib beradi. Shuningdek, maktab amaliyotida va pedagogik fikr tarixida o'qituvchining mahorati masalalari, pedagogika qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati va o'qituvchining psixologik faoliyati, pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari, darsda va tarbiya jarayonida o'qituvchi mahorati, o'qituvchi mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirishi, tadqiqot metodlari; hozirgi Ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo'llari, pedagogik mahorat taraqqiyoti tarixi, mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, o'qituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslarini o'rganish, tahlil etish to'g'risida Boshlang'ich ma'lumotlar berishni nazarda tutadi. Pedagogik mahorat fani yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashini, shuningdek, pedagogik shaxsi uning tajribasi, fuqaro'lik va kasbiy mavqeiini o'rgatadi.

«Pedagogik mahorat» fani «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Yosh pedagogikasi va psixologiyasi», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Pedagogik texnologiya»lar bilan birgalikda bilim va malakalar tizimini yaratadi. Pedagogik mahorat fanining maqsadi bo`lajak o`qituvchiga hozirgi zamon pedagogika sohasidagi dolzarb muammolarni, o`qituvchi shaxsi va kasbi haqidagi bilim va malakalarni hamda har bir tarixiy bosqichda ta`lim – tarbiya tizimi, ijtimoiy-pedagogik fikrlar, ta`lim-tarbiya mazmuniga ijodiy munosabatda bo`lishini o`rgatadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti - «ta`lim to`g`risida» gi qonun va «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, o`z sohasini mukammal egallagan, bilimdon, axloqan pok, ma`nan etuk, jismonan sog`lom bo`lgan pedagoglarni tarbiyalashdir. Pedagogik mahorat fanining vazifalari - o`qituvchi mahoratiga doir dolzarb muammolar va bu borada olib borilishi zarur bo`lgan tadqiqot va izlanishlar, o`qituvchining kasbdoshlari, ota-onalar va o`qituvchilar bilan aloqa munosabatlarning yo`nalishini, usullarini hamda o`qituvchi faoliyatida kasb mahoratining o`rni, mohiyati o`qituvchining muomila madaniyati, o`qituvchi ishidagi texnika pedagogik g`oya, ta`limotlarni o`rganadi.

O`quvchilarda so`zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang`ich tasavvurini shakllantirish. Tovushlar va harflar, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalanishi. Bo`g`in, bo`g`in ko`chirish qoidalari bilan tanishtirish, ularni amaliy o`zlashtirish ustida ishlash. O`quvchilarda grammatika va so`z yasashiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari. Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o`quvchilar o`zlashtirishidagi qiyinchiliklar. Tushunchani o`zlashtirish ustida ishlash jarayoni, uning shartli ravishda to`rt bosqichga bo`linishi. Birinchi tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini analiz qilish. Ikkinchi bosqich tushuncha belgilarini umumlashtirish, atama berish. Uchinchi bosqich tushuncha ta`rifini ifodalash, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog`lanishni aniqlash. To`rtinchi bosqich-yangi til materiali asosida o`rganilayotgan tushunchani aniqlash. Kichik yoshdagi o`quvchilar tushunchasi o`zlashtirilgani ta`minlaydigan metodik shartlar; o`quvchilar aqliy faoliyatining aktivligi; o`quvchilarda so`z va gapga lingvistik munosabatini o`stirish ustida maqsadga yo`naltirilgan ishlar; yangi tushunchani ilgari o`rganilgan tushunchalar tizimga kiruvchi; ayrim til kategoriyalari bog`lanishining mohiyati yangi til kategoriyasini o`rganish jarayonida ochiladi; tushunchani ko`rsatmali o`rganish. Grammatik va so`z yasashiga oid mashqlar, ularning turlari. Tushunchani o`zlashtirishning turli bosqichlarida grammatik mashqlarni tadbiql etish usuliyati. So`zni va gapni tahlil qilish, uning turlari va tilni o`rganish jarayonida undan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмудова Д. Б., Узгунова К. Е. ВАЖНОСТЬ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 516-519.
2. Камила Ерлановна Узгунова and Махмудова, Дилафруз Балтабаевна, "ВАЖНОСТЬ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." PEDAGOG 6.3 (2023): 516-519.
3. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2430/2095>

4. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665>
5. <https://new.tdpu.uz/page/1670>